



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

MUNDARIJA:

NAZARIYA VA METODOLOGIYA	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусовна Пардаева Янги Ўзбекистоннинг бойлиги бўлган инсон капиталининг ривожланишида оиланинг ўрни	5
Мурод Мухаммедович Мухаммедов Макроиктисодий барқарорликни таъминлашда иш ҳақи ва нархлар мувозанатининг аҳамияти	9
Dr. Okszana KISZIL Between the two worlds: migrant children and adaptation strategies	12
Зарина Муродовна Мухаммедова Ўзбекистонда облигациялар бозорини ривожлантиришнинг иқтисодий муаммолари ва стратегик йўналишлари	17
SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI	
Junaydillo Sadiyevich Fayziyev Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan sigir sutining sifat ko‘rsatkichlari	20
Джунайдилло Садиевич Файзиев, Азизахон Мамасидикова Положительные и отрицательные аспекты использования пальмового масла в пищевой промышленности	23
TADBIRKORLIK, MEHNAT, BANDLIK VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH	
Lola Nazarovna Xalikova, Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev, Muxammadjon Mansur o‘g‘li Xojiyev O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishining mehnat unumdorligiga ta’siri	28
Anvar Nematovich Xoliqulov Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnatning xarakteri va manfaatlar mushtarakligi	33
XIZMAT KO‘RSATISH VA SERVIS	
Абдумалик Бектемиров, Дилшод Фархадович Насиров Оценка эффективности инновационно-инвестиционной стратегии предприятий сферы услуг Республики Узбекистан	36
Рузбой Нормухоматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов, Шерзод Мирзаали ўғли Музаффаров Соғломлаштириш хизматларида B2 витамини (рибофлавин)нинг ўрни, очилиш тарихи, аҳамияти, манбалари, етишмаслигининг олдини олиш йўллари	43
Обид Мамаюнусович Пардаев Иссиқлик таъминоти хизматларини кўрсатишда энергия ресурсларини тежаш ва улардан самарали фойдаланиш йўллари	46
Феруз Нематуллаевич Абилов Агросервис хизматларини ривожлантириш асосида аҳолини камбағалликдан чиқариш механизмини такомиллаштириш	50
Zebo Eshmaxmatovna Normurodova Maishiy xizmatlar samaradorligini oshirishda sinergetik, messijerlik va geffen samaralarining o‘rni (Qashqadaryo viloyati misolida)	55
Nargiz Toxirovna Sattarova, Sultonbek Azizovich Baxromov O‘zbekistonda servis iqtisodiyoti: xizmat ko‘rsatish sifatini boshqarishning zamonaviy usullari va tendensiyalari	59

Ф.Абилов Совершенствование механизма вывода населения из бедности на основе развития агросервисных услуг	F.Abilov Improving the mechanism for poverty reduction through the development of agroservice services
Аннотация. В статье рассмотрены вопросы совершенствования механизма вывода населения из бедности на основе развития агросервисных услуг. При этом показаны возможности обеспечения населения доступной и качественной продукцией на основе внедрения дешёвых, эффективных и качественных агросервисных услуг с использованием модели «СУЮА» («Качественное обслуживание → плодородная земля → высокий урожай → доступная продукция»). Также разработана программа мер, направленных на сокращение бедности. В ней освещены стратегические механизмы снижения уровня бедности, такие как обеспечение постоянной занятости населения, вовлечение их в предпринимательскую деятельность, предоставление земель в аренду и профессиональное обучение населения. Ключевые слова: агросервис, агросервисные услуги, модель «СУЮА», качественное обслуживание, плодородная земля, высокий урожай, доступная продукция, эффективность, бедность, сокращение бедности.	Abstract. The article discusses issues of improving the mechanism for reducing poverty through the development of agroservice (agroservice) services. It highlights the opportunities to provide the population with affordable and high-quality products by introducing low-cost, efficient, and high-quality agrosystem services based on the “SUYA model” (“Quality service → fertile land → high yield → affordable products”). In addition, a set of measures aimed at poverty reduction has been developed. The study outlines strategic mechanisms for reducing poverty, including creating permanent jobs, engaging the population in entrepreneurship, leasing land, and providing vocational training. Keywords: agrosystem services, agroservice, “SUYA model”, quality service, fertile land, high yield, affordable products, efficiency, poverty, poverty reduction.

Zebo Eshmaxmatovna Normurodova – Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MAISHIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SINERGETIK, MESSIJERLIK VA GEFFEN SAMARALARINING O‘RNI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada maishiy xizmatlar samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Xususan, sinergetik, messijerlik va Geffen samaralarining iqtisodiy mohiyati ochib berilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida maishiy xizmatlar samaradorligini oshirishning kompleks modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maishiy xizmatlar, samaradorlik, sinergetik samara, messijerlik samara, Geffen samara, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar bozori, hududiy rivojlanish.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xususan, xizmatlar sektorini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Xizmatlar sohasi va servisni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda Prezident farmonlarida xizmatlar ulushini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash va hududiy xizmat infratuzilmasini kengaytirish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan[2].

Jumladan, PQ-5113-son Qaror doirasida hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda maishiy xizmatlarni kengaytirish, yangi xizmat turlarini joriy etish va servis infratuzilmasini rivojlantirish vazifalari belgilangan.

Ayniqsa, maishiy xizmatlar aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa Harakatlar strategiyasi doirasida ham alohida ta‘kidlangan bo‘lib, unda xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston sharoitida, jumladan Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar bozori rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, uning samaradorligini oshirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Bu borada davlat tomonidan qabul qilinayotgan raqamlashtirish siyosati, xususan, Raqamli O‘zbekiston – 2030 dasturi muhim ahamiyat kasb etadi[5].

Shu bilan birga, hududiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish va xizmatlar ko‘rsatish hajmini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maishiy xizmatlar samaradorligi xizmat ko‘rsatish jarayonida mavjud resurslardan – mehnat, vaqt, kapital va axborotdan oqilona foydalanish orqali maksimal ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish darajasini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ushbu tushuncha zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda resurslardan optimal foydalanish va natijadorlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi Kalandar Abdurahmonov tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslikgiga ko‘ra resurslar shunday taqsimlanishi lozimki, bir subyektning ahvolini yaxshilash boshqasining zarariga olib kelmasin [6]. Mazkur yondashuv xizmatlar sohasida ham qo‘llanilib, xizmat ko‘rsatishda maksimal natijaga minimal resurs sarfi orqali erishishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, xizmatlar samaradorligini baholashda D.K. Begimovanning Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish nomli ilmiy ishida hududiy klaster – bu qo‘shilgan qiymat yaratilishining asosiy texnologik zanjiriga kiruvchi, ma’lum hududda joylashgan, hamkorlikdagi faoliyatdan sinergetik samara oluvchi va resurslardan samarali foydalanish asosida hududiy rivojlanishni ta’minlovchi o‘zaro aloqador korxonalar guruhidir. [7]. Unga ko‘ra, samaradorlik faqat xarajatlarni kamaytirish bilan emas, balki mijoz ehtiyojlarini to‘liq qondirish orqali aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda maishiy xizmatlar sohasini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv asosida maishiy xizmatlar yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilindi. Funktsional yondashuv yordamida xizmat turlari va ularning iqtisodiy vazifalari aniqlashtirildi. Hududiy yondashuv orqali xizmatlar rivojlanishi hududlar kesimida baholandi. Shuningdek, innovatsion yondashuv doirasida raqamli texnologiyalar va zamonaviy servis modellarining ta’siri o‘rganildi.


Huquqiy tahlil usuli yordamida mazkur tadqiqotda maishiy xizmatlar sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani chuqur o‘rganishga qaratildi. Ushbu usul orqali amaldagi qonunlar, qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlarning mazmuni, ularning o‘zaro uyg‘unligi hamda amaliy qo‘llanish darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, huquqiy normalarning soha rivojiga ta’siri, mavjud bo‘shliqlar va takomillashtirish zarur bo‘lgan jihatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Maishiy xizmatlar samaradorligi ko‘p mezonli tizim sifatida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi: xizmat sifati, xizmat ko‘rsatish tezligi, xarajatlar darajasi, mijoz qoniqishi va xizmat hajmi. Xizmat sifati uning standartlarga mosligi va mijoz kutgan natijani ta’minlash darajasini ifodalaydi. Xizmat ko‘rsatish tezligi esa buyurtmalarni bajarish muddati va operatsion jarayonlarning samaradorligi bilan belgilanadi. Xarajatlar darajasi resurslardan foydalanish samaradorligini aks ettirib, xizmatlarning rentabelligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mijoz qoniqishi xizmatlar natijasining yakuniy bahosi bo‘lib, mijozlarning qayta murojaat qilish darajasi orqali aniqlanadi. Xizmat hajmi esa bozor ulushi va xizmatlar kengayish darajasini ifodalaydi.

Shu bilan birga, maishiy xizmatlar tizimi ko‘p funktsiyali ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki aholi turmush darajasini oshirish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kabi vazifalarni ham bajaradi. Shu sababli uning samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy va institutsional omillarni ham inobatga olgan holda kompleks yondashuvni qo‘llash zarur.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xizmatlar samaradorligini oshirish uchun tizimli (system approach) va integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi[3]. Bu esa maishiy xizmatlar samaradorligini oshirishda sinergetik, messijerlik va hududiy (Geffen) samaralarini birgalikda o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Qashqadaryoda maishiy xizmatlar samaradorligi quyidagi omillar bog'liq



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar.

Sinergetik samara iqtisodiy tizim elementlarining o'zaro integratsiyasi natijasida yuzaga kelib, umumiy natijaning alohida qismlar yig'indisidan yuqori bo'lishi bilan tavsiflanadi ($E(A+B) > E(A) + E(B)$). Mazkur nazariy yondashuv ayniqsa maishiy xizmatlar sohasida dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki xizmat turlarini kompleks tarzda tashkil etish orqali qo'shimcha iqtisodiy va ijtimoiy foyda olish imkoniyati yuzaga keladi. Xususan, turli xizmatlarning bir nuqtada jamlanishi mijozlar uchun qulaylik yaratib, vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Masalan, sartaroshxona xizmatlarini go'zallik saloni bilan integratsiya qilish yoki texnik ta'mir xizmatlarini ehtiyot qismlar savdosi bilan uyg'unlashtirish natijasida xizmat ko'rsatish jarayoni optimallashtiriladi. Bu esa xizmat ko'rsatish hajmining ortishi, daromadlarning ko'payishi va xarajatlarning qisqarishi orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Natijada, bunday integratsiyalashgan xizmat ko'rsatish tizimlari bozor sharoitida raqobatbardoshlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Messijerlik samara zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xizmat ko'rsatish jarayoniga joriy etilishi bilan bog'liq bo'lib, xizmatlar tezkorligi, aniqligi va qulayligini oshirish orqali ifodalanadi. Ushbu yondashuv institutsional iqtisodiyot doirasida Ronald Coase tomonidan asoslab berilgan tranzaksiya xarajatlari nazariyasiga tayangan holda, iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi kelishuv va axborot almashinuvi xarajatlarini minimallashtirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Xususan, raqamli platformalar va messenjer ilovalari (masalan, Telegram, WhatsApp va boshqa onlayn xizmatlar) orqali buyurtmalarni qabul qilish, mijozlar bilan tezkor aloqa o'rnatish va xizmat jarayonini muvofiqlashtirish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish vaqtining qisqarishi, mijozlar oqimining ortishi hamda tadbirkorlik subyektlari daromadlarining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, raqamlashtirish xizmatlar bozorida shaffoflikni ta'minlab, raqobat muhitining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Geffen, ya’ni aglomeratsiya samarasi xizmatlar va iqtisodiy faoliyat turlarining muayyan hududda hududiy jihatdan jamlanishi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatda iqtisodiy subyektlar o’rtasida o’zaro aloqalar kuchayadi, resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi va ixtisoslashuv darajasi ortadi. Natijada xizmatlar sifati yaxshilanib, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish xarajatlari kamayadi. Hududiy konsentratsiya, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojida muhim rol o’ynaydi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati, xususan Qarshi shahrida maishiy xizmatlar subyektlarining markazlashuvi bozor infratuzilmasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatib, narxlarning barqarorlashuvi va iste’molchilar uchun tanlov imkoniyatlarining kengayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bunday hududiy jamlanish innovatsiyalar almashinuvi va xizmat ko’rsatish madaniyatining oshishiga ham xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, hududda maishiy xizmatlar sohasining rivojlanishida ijobiy dinamik o’sish kuzatilmoqda. Xususan, xizmatlar hajmi kengayib borayotgani, kichik biznes subyektlari sonining ortishi hamda yangi xizmat turlarining shakllanishi ushbu sohaning iqtisodiyotdagi ulushini oshirmoqda. Hozirgi davrda davlatning mehnat bozorini tartibga solish siyosati har bir mamlakatdagi milliy iqtisodiyotdagi vaziyat, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi, tarkib topgan ijtimoiy-mehnat munosabatlari va boshqa ko’pgina omillar hisobga olingan holda shakllanadi.[6] Biroq ushbu ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, qishloq hududlarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi hamda xizmatlar integratsiyasining sustligi sohaning to’liq rivojlanishiga to’sqinlik qilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks hududiy siyosat, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

O’tkazilgan tadqiqotlar asosida maishiy xizmatlar sohasida samaradorlikni baholashning quyidagi konseptual modeli ishlab chiqildi:

$S = f(\text{Synergy} + \text{Communication} + \text{Agglomeration})$.

Mazkur modelga muvofiq, sinergetik samara tizim ichidagi resurslar va xizmatlar integratsiyasi orqali ichki samaradorlikni oshiradi, messijerlik (kommunikatsion) samara xizmat ko’rsatish jarayonlarini tezlashtirish va optimallashtirish orqali operatsion samaradorlikni ta’minlaydi, aglomeratsiya samarasi esa hududiy darajada bozor mexanizmlarini kuchaytirib, umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ushbu omillarning o’zaro uyg’unligi natijasida xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligi sezilarli darajada ortadi.

Xulosa va takliflar: Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, maishiy xizmatlar samaradorligini oshirish sinergetik, messijerlik va Geffen samaralarining o’zaro uyg’unligi asosida ta’minlanadi. Sinergetik samara xizmatlar integratsiyasi orqali ichki samaradorlikni oshirsa, messijerlik samara raqamlashtirish orqali operatsion samaradorlikni ta’minlaydi, Geffen samara esa hududiy klasterlash orqali bozor samaradorligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, maishiy xizmatlar samaradorligi xizmat sifati, tezligi, resurslardan foydalanish darajasi va hududiy infratuzilma bilan bevosita bog’liqdir. Shu bilan birga, xizmatlar integratsiyasining sustligi, raqamlashtirish darajasining pastligi va hududiy nomutanosibliklar asosiy muammolar sifatida aniqlandi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi **takliflar** ilgari suriladi:

- xizmatlar samaradorligini oshirishning aniq modeli joriy etish;
- integratsiyalashgan xizmatlar markazlari tashkil etish, raqamli platformalar orqali xizmatlarni boshqarish hamda xizmatlar samaradorligini baholashning kompleks indikatorlar tizimini shakllantirish;
- qishloq hududlari uchun maxsus dastur ishlab chiqish;
- kichik biznesni rag’batlantirish mexanizmini kuchaytirish;
- xizmatlar klasterini shakllantirish (aglomeratsiya) zarur.

Shuningdek, kichik biznesni qo’llab-quvvatlash va hududiy xizmat markazlarini tashkil etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Ushbu chora-tadbirlar xizmatlar samaradorligini oshirish va sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari: PF-60-son Farmon (2022), PQ-5113-son Qaror. <https://gov.uz/oz/bv/pages/prezident-qarorlari-va-farmonlari>
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasi xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik to‘plamlar. – Toshkent, 2022–2024.
3. OECD. Digital Economy Outlook. – Paris, 2020.
4. Jahon banki. World Development Report. – Washington DC, 2021.
5. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” davlat dasturi. – Toshkent, 2020.
6. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot /Darslik. Kalandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, T.: 2019.-544 b.
7. D.K. Begimova. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish. MONOGRAFIYA. Toshkent 2024

3.Нормуродова Роль синергетического, мессенджерского и Геффенова эффекта в повышении эффективности бытовых услуг (на примере Кашкадарьинской области)	Z.Normurodova The Role of Synergistic, Messenger, and Geffen Effects in Improving the Efficiency of Household Services (Case Study of Kashkadarya Region)
Аннотация. В данной статье изучены теоретические и практические аспекты повышения эффективности бытовых услуг. В частности, раскрыта экономическая сущность синергетического, мессенджерского и Геффенова эффекта, а также проанализирована их взаимосвязь на примере Кашкадарьинской области. По результатам исследования разработана комплексная модель повышения эффективности бытовых услуг. Ключевые слова: бытовые услуги, эффективность, синергетический эффект, мессенджерский эффект, эффект Геффена, цифровая экономика, рынок услуг, региональное развитие.	Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of improving the efficiency of household services. In particular, the economic essence of synergy, messenger, and Geffen effects is revealed, and their interrelationship is analyzed based on the example of the Kashkadarya region. As a result of the study, a comprehensive model for improving the efficiency of household services has been developed. Keywords: household services, efficiency, synergy effect, messenger effect, Geffen effect, digital economy, service market, regional development.

Nargiz Toxirovna Sattarova – SamISI, “Menejment” kafedrasida dotsenti v.b., PhD

Sultonbek Azizovich Baxromov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

O‘ZBEKISTONDA SERVIS IQTISODIYOTI: XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni boshqarishning zamonaviy usullari va raqamli tendensiyalari o‘rganilgan. Samarqand va Toshkent shaharlaridagi 400 nafar iste‘molchi ishtirokida SERVQUAL metodologiyasi yordamida korxonalar xizmat sifati baholandi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, xaridor kutilmalari va real holat o‘rtasidagi farq asosan xodimlarning empatiyasi hamda servis ishonchliligi bilan bog‘liq. Ish so‘ngida xizmat darajasini oshirish, iste‘molchi ehtiyojiga moslashish va raqamli tizimlarni joriy etish orqali biznes subyektlarining bozordagi mavqeyini mustahkamlash bo‘yicha amaliy takliflar keltirilgan. Kalit so‘zlar: servis iqtisodiyoti, xizmat ko‘rsatish sifati, SERVQUAL modeli, raqobatbardoshlik, mijozga yo‘naltirilganlik, sifat menejmenti tizimi (TQM), tranzaksion xarajatlar.

Kirish. Hozirgi vaqtda global bozorda iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi an’anaviy ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasiga ko‘chib o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Rivojlangan davlatlar misolida tahlil qilsak, yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o‘rtacha 70-75 foizi aynan servis tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda mazkur sektor ancha faollashdi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda o‘ziga xos drayver vazifasini bajarmoqda. Xususan, "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida aholiga xizmat ko‘rsatish muhitini xalqaro standartlarga olib chiqish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilab berilgan.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.